



XALQARO YUK TASHUVLARINI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI VA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Xo‘jaev Fazliddin Elmuradovich

TDIU “Biznes boshqaruvi” kafedrasida dosenti, PhD

ORCID: 0000-0003-2933-0735

Email: F.Xujaev@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss1/641

Annotatsiya

Transport tizimining muhim ko‘rsatkichlaridan biri dunyo mamlakatlariga chiqishda qisqa yo‘lni ta‘minlovchi mavjud transport tarmoqlaridan, ularning geografik joylashuvi afzalliklari hamda kommunikatsion imkoniyatlaridan oqilona foydalanish hisoblanadi. Yuklarni yetkazib berishni tashkil etishda yuk jo‘natuvchilar, vositachilar, ekspeditorlar, yuk tashuvchilar, bojxona xodimlari, sug‘urta kompaniyalari va boshqa tashkilot vakillari murakkab o‘zaro munosabatlarga kirishadilar. Bu munosabatlarga xalqaro va milliy huquqiy-normativ normalar, tovar bozoridagi jarayonlar konyunkturasi, iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy omillar o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Bunday beqaror va transport xizmatlari bozoridagi yuqori raqobat sharoitlarida transport xizmatlarini ko‘rsatishda ratsional yechimlar qidirib topish, yuk yetkazib berish tizimining transport-texnologik asoslanganligi, tashuv jarayonlarini tashkil etishda so‘ngi raqamli texnologiyalardan va metodlardan foydalanish, amaldagi usullarni takomillashtirish hamda istiqbolli transport texnologiyalarini yaratish muhim o‘rinni egallaydi.

Kalit so‘zlar: yuk yetkazib berish tizimi, transport xizmatlari bozori, yuk aylanmasi, yo‘lovchi aylanmasi, transport integratsiyasi, yuklarni tashish jarayoni, yuqori texnologiyali transport vositalari, mamlakatlarning transport tizimi, xalqaro aloqalar.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПУТИ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ГРУЗОПЕРЕВОЗОК.

Хужаев Фазлиддин Элмуродович

PhD, доцент кафедры “Управление бизнесом” ТГЭУ

Аннотация

Одним из важных показателей транспортной системы является рациональное использование существующих транспортных сетей, обеспечивающих кратчайший путь сообщения со странами мира, преимущества их географического положения и коммуникационные возможности. При организации доставки грузов в сложные взаимоотношения вступают грузоотправители, посредники, экспедиторы, перевозчики, таможенники, страховые компании, представители других организаций. На эти отношения оказывают влияние международные и национальные правовые и нормативные акты, контекст процессов на товарном рынке, экономические, политические и социальные факторы. В условиях нестабильного и высококонкурентного рынка транспортных услуг необходим поиск рациональных решений по предоставлению транспортных услуг, транспортно-технологической основы системы доставки грузов, использования новейших цифровых

технологий и методов в организации транспортных процессов, совершенствование существующих методов и разработка перспективных видов транспорта. Создание технологий играет важную роль.

Ключевые слова: система доставки грузов, рынок транспортных услуг, грузооборот, пассажирооборот, транспортная интеграция, процесс грузоперевозок, высокотехнологичные транспортные средства, транспортные системы стран, международные отношения.

CURRENT STATE AND WAYS OF DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL CARGO TRANSPORTATION

Khodjaev Fazliddin Elmurodovich Phd,

Associate professor of the department “Business management”, TSUE

Abstract

One of the important indicators of the transport system is the rational use of existing transport networks that provide the shortest route of communication with countries of the world, the advantages of their geographical location and communication capabilities. When organizing the delivery of goods, shippers, intermediaries, forwarders, carriers, customs officers, insurance companies, and representatives of other organizations enter into complex relationships. These relationships are influenced by international and national legal and regulatory acts, the context of processes in the commodity market, economic, political and social factors. In the conditions of an unstable and highly competitive transport services market, it is necessary to search for rational solutions for the provision of transport services, the transport and technological basis of the cargo delivery system, the use of the latest digital technologies and methods in organizing transport processes, improving existing methods and developing promising types of transport. The creation of technologies plays an important role.

Key words: cargo delivery system, transport services market, cargo turnover, passenger turnover, transport integration, cargo transportation process, high-tech vehicles, transport systems of countries, international relations.

Kirish

Iqtisodiyotning barcha sohalarida globallashuv yuz berayotgan bugungi kunda xalqaro yuk tashuvlari tovar va mahsulotlar, xizmatlar almashinuvi ta'minlovchi asosiy dastak hisoblanadi. Jahon bozori qamrovining globallashuvi va integratsiya ko'lami kengayib borgani sari jahon iqtisodiyoti faoliyatini samarali amalga oshirishda xalqaro yuk tashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat transport tizimining rivojlanganlik darajasi – texnologik rivojlanganlik holatinining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Jahon iqtisodiy integratsiyasida rivojlangan transport tizimiga bo'lgan ehtiyoj yanada ortadi hamda mamlakatning jahon bozoriga kirib borishi va unda o'z o'rnini egallashida asos bo'ladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 26-noyabr kuni temir yo'l va aviatsiya sohasidagi davlat kompaniyalarida transformatsiya jarayonlarining borishiga oid taqdimot bilan tanishdi, unda “Transport yo'llari qanchalik muhimligini dunyodagi murakkab vaziyat ham ko'rsatib turibdi. Shu bois, yo'nalishlarni diversifikatsiya qilish, tashish jarayonlarini tezlashtirish, transport xizmatlari tannarxini pasaytirish juda muhim vazifalardan biri hisoblanadi”, deya ta'kidlagani bejiz emas.

Adabiyot tahlili

Logistika fani eng yosh iqtisodiy fan bo'lishiga qaramay, u haqidagi dastlabki qarashlar bir necha asrlar oldin vujudga kelgan. Bugungi kunga kelib logistika sohasi jarayonlarni optimallashtirish, ta'minot zanjirini boshqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish

hamda logistika tizimlarini takomillashtirish kabi masalalarni yechimini topishni taqozo qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida iqtisodchi olimlar, soha mutaxassislarini logistika yo‘nalishida izlanishlariga, ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan uni izchil o‘rganishlariga sabab bo‘lmoqda. Logistika sohasida eng muhim izlanishlar ta‘minot zanjirini boshqarish (Supply Chain Management), logistik jarayonlarni optimizatsiya qilish, transport logistikasi va marshrutlarni optimallashtirish, logistika sohasida qo‘llanilayotgan zamonaviy texnologiyalar, ekologik logistika, yashil logistika, logistikada risklarni boshqarish, logistikada avtomatlashtirish va robotlashtirish kabilarda olib borilmoqda. Umumlashtirgan holda aytadigan bo‘lsak, bu sohadagi barcha ilmiy izlanishlar logistikaning eng muhim va dolzarb tomonlarini o‘z ichiga olgan.

Xalqaro yuk tashuvlar va jahon transport tizimiga A.Arhipov, S. Maslennikov “Xalqaro yuk tashuvlar” (2023) kitobida umumiy tavsif berganlar. Shuningdek, xalqaro yuk tashuvlarining huquqiy-me‘yoriy asoslari, xalqaro yuk tashuvining texnik vositalari, tashkil etilishi va dengiz transporti, xalqaro yuk tashuvlarning transport infratuzilmasi; aloqa yo‘llari, portlar va terminallarga umumiy ma‘lumot berganlar.

Olimlar Tomas Goldsbi, Dipak Ayengar, Rao Sheshanklar (2019) transport jarayonlarini rejalashtirish, amalga oshirish, o‘lchash va optimallashtirish bo‘yicha eng nufuzli va keng qamrovli qo‘llanmani yaratdilar. Ular eng yirik logistika assotsiatsiyasi, ta‘minot zanjirini bosqarish bo‘yicha mutaxassislar kengashi bilan birgalikda yuklarni tejamkor tashish jarayoni uchun eng so‘nggi tamoyillar, strategiyalar va yechimlarni birlashtirdilar. Shuningdek, ular o‘z izlanishlarida tashish usullari, tashuvlarning bajarilishi, nazorati, autsorsing, TMS texnologiyasi, dengiz, havo transporti va boshqa ko‘plab masalalarni ko‘rib chiqdilar.

Rossiya olimlari I.Afanasenkov, V.Borisovalar (2019) yuk tashuvlarini raqamlashtirish hisobiga transport xizmatlarini sifat, samaradorlik darajasini oshirish uchun mavjud bo‘lgan axborot xizmatlarini rivojlantirish, yangi integratsiyalashgan raqamli texnologik platformalar yaratish va tadqiqot etish hamda tarmoqni yangi transport vositalar bilan ta‘minlash lozim deya ta‘kidlab o‘tganlar.

AQSHdagi Bouling Grin universiteti professori M.D.Sarder “Logistics transportation systems” (2020) kitobida yuk tashuvlarini boshqarish transport logistikasining eng muhim qismi deb hisoblaydi. Yuk tashuv tarmoqlarini modellashtirish usullari transport tizimlaridan foydalanishni rejalashtirishda qo‘llanilib, bu modellar xarajatlarni hisoblash, narxlarni boshqarish va tovarlarni yetkazib berish jadvalini tuziish borasidagi muammolarni tizimga jamlash uchun faoydalaniladi degan fikrlarni bildirgan.

Tadqiqot usullari

Tadqiqotning uslubiy asosini transport xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish sohasidagi xorijiy va o‘zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan fundamental tushuncha va qoidalar tashkil etadi. Muallif, shuningdek, ilmiy jamoalarning transport xizmatlarini ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, transportning barcha turlaridan cheklangan va cheksiz foydalanish sharoitida ulardan foydalanish samaradorligi muammolarini o‘rganish, shakllantirish, foydalanish sohasidagi tadqiqotlar natijalariga tayanadi. Iqtisodiyotda tovarlarni tashish va iste‘mol qilishning yangi yo‘nalishlarini ishlab chiqish, davlat organlari hisobotlari va statistik ma‘lumotlar, qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston kompaniyalarining uzoq muddatli rivojlanish dasturlari va hisobotlari


shular jumlasidandir. Tadqiqot jarayonida funktsional yo‘naltirilgan qidiruv, iqtisodiy va statistik tahlil, prognozlash va modellashtirishning turli usullari va vositalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Zamonaviy tendensiyalar mamlakatimizda bugungi kunda logistika sohasida, xususan xalqaro yuk tashuv tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yangi infratuzilmalarni barpo etishni taqozo etmoqda. Buning sababi mamlakatimizdagi logistika sohasini rivojlantirish tashqi iqtisodiy faoliyatda yuk tashish jarayonlarini samarali, ishonchli va tejamkor qilish orqali tashuvchi kompaniyalar va mijozlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Yuk tashuvlarida logistik transport tizimlarning yetarli darjada rivojlanmaganligi transport xarajatlarini oshib ketishiga va bozorni yo‘qotishga sabab bo‘ladi. Bu kabi murakkab masalalarni hal etishda transport tizimi faoliyatini rejalashtirish, tahlil qilish va iqtisodiy holatiga baho berishda aniqlikni oshirish zarur bo‘ladi. Faqatgina aniq hisob-kitoblar va tahlil orqali yuklarni tashishda resurslarni tejoychi sxemalarni ishlab chiqish mumkin.

Olingan statistika ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida transport xizmatlari eksporti 2020-yilda 1426,1 mln. AQSH doll., 2021-yilda 1744,1 mln. AQSH doll., 2022-yilda 1765,9 mln. AQSH dollarni tashkil qilgan. Transport xizmatlari importida esa 2020-yilda 165,6 mln. AQSH doll., 2021-yilda 211,1 mln. AQSH doll., 2022-yilda 406,1 mln. AQSH dollarni hamda 2023-yilda 2236,2 mln. AQSH dollarni tashkil etdi. Eksport yo‘nalishida yuk tashish uchun arizalar soni 145% ga o‘sgan.


2020-2023-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida transport turlari bo‘yicha yuk aylanmasini tahlil qiladigan bo‘lsak quyidagi o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Qilingan tahlillar mazkur davr mobaynida mamlakatda yuk tashish aylanmasida sezilarli o‘shish bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Barcha transport turlarida umumiy yuk aylanmasi 2020 yildagi 66.9 mlrd. t-kilometrni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilga kelib 76.8 mlrd t-kilometrga yetganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga, halqaro mydondagi vaziyat hisobiga logistika xarajatlari bir necha barobar oshib ketdi. Shuningdek, Armaniston, Moldova, Qirg‘iziston, Belarus, Mo‘g‘uliston va Qozog‘istonga tovarlar yetkazib berish bo‘yicha arizalar sonining ko‘payishi qayd etildi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida transport xizmatlari eksporti va importi (mln. AQSH dollar)

Jahon banki ekspertlari tomonidan tayyorlangan Logistics Performance Index (LPI) reytingida O‘zbekiston Respublikasi 88-o‘rinni egallagan. 2018-yilda esa O‘zbekiston

Respublikasi ushbu reytingda 99-o‘rinni egallagan edi. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi 2018-yildagi hisobotga asosan oldingi o‘rniga nisbatan o‘z ko‘rsatkichlarini 11-pog‘onaga yaxshilagan. Ammo mamlakatimiz jahondagi yeyakchi davlatlar bilan solishtirganda ancha ortda ekanligini ko‘rishimiz mumkin (2-rasm).




2-rasm. O‘zbekiston Respublikasining yillik jami yuk aylanmalari (2020-2023 yillar kesimida)

Umuman olganda, yuk aylanmasining barqaror o‘shishi transport infratuzilmasini rivojlantirish va tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish natijasiga bo‘g‘liq. Kelgusida u yuk aylanmasini yanada oshirish zamirida raqamlashtirish, infratuzilmalarni modernizatsiya qilish va tashuvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.


O‘zbekiston Respublikasida 2021-2024-yillarning yanvar-sentabr oylarida tashish va saqlash tarmog‘ining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibini tahlil qiladigan bo‘lsak, avtomobil transporti 2021-yilda 62,7%, 2022-yilda 61,3%, 2023-yilda 53,3% va 2024-yilda 53%ni tashkil etdi. Quvur transporti yillar kesimida 2021-yilda 13%, 2022-yilda 9,5%, 2023-yilda 15,8% va 2024-yilda 14,7% ni tashkil etdi. Temir

yo‘l transporti esa yillar kesimida deyarli o‘zgarmas natijani ko‘rsatib, 2021- yilda 10,3%, 2022-yilda 9,9%, 2023-yilda 9,6% va 2024-yilda 9,1%ni tashkil etdi. Yordamchi transport xizmatlari esa ushbu davrda o‘sganini ko‘rsak bo‘ladi, 2021-yilda 9,7%ga, 2022-yilda 12,7%ga , 2023-yilda 13,1%nga va 2024-yilda 15 %ga teng bo‘ldi. Shu jumladan, havo transporti 2021-yilda 4,3%ni, 2022-yilda 7,1%ni, 2023-yilda 8,2%ni va 2024-yilda 8,2%ni tashkil qilganini ko‘rishimiz mumkin(3-rasm).



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2021-2024 yillarning yanvar-sentabr oylarida tashish va saqlash tarmog‘ining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi, (jamiga nisbatan %da)¹


Statistika agentligi ma’lumotlardan foydalanib, O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegaralaridan o‘tgan yuklar hajmini tahlil qilib chiqamiz. Bunda jami kirib kelgan tovarlar 2019 yilda 23054 t yuk, 2020-yilda 24626,9 t yuk, 2021-yilda esa 26898,8 t yuk kirgan hamda 2022-yilda bu ko‘rsatkich pastlab 25808,5 t ni tashkil qildi. Aksincha, O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegaralaridan chiqib ketgan yuklar hajmini tahlil qilsak jami yuklar hajmi 2019-yilda 18014 t, 2020-yilda 9388,4 tni, 2021-yilda 14668 t va 2022-yilda 10766,7 t ni tashkil qilgan (4-rasm).



4-rasm. O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegaralaridan o‘tgan yuklar hajmi (transport vositalarida, ming tonna)²

Yuqoridagi rasmda O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegaralaridan o‘tgan yuklar hajmi ko‘rsatib berilgan. Ko‘rib turganimizdek, rasmda transport vositalarida jami kirib kelgan yuklar 2019-yildan 2020-yilda kirib kelgan yuklar hajmi yil sayin ortib borgan. Xususan, 2019-yilda 23054,9 tonnani tashkil etgan, 2020-yilda 24626,9 tonnani, 2021-yilda 26898,8 va 2022-yilda 25808,5 ni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegaralaridan chiqib ketgan yuklar hajmi ko‘rsatib berilgan. Ko‘rib turganimizdek, rasmda transport vositalarida jami chiqib ketgan yuklar yillar hisobida o‘zgardi. Xususan, 2019-yilda 18014,1 tonnani tashkil etgan, 2020-yilda 9388,4 tonnani, 2021-yilda 14668 va 2022-yilda 10766,7 tonnani tashkil etdi.



5-rasm. O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegaralaridan kirib kelgan yuklar hajmi (transport turlari, ming tonna)³

² O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

³ O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ma'lumki, O'zbekistonda intermodal logistika xabida xizmat ko'rsatish jarayoni yil sayin takomillashib borayapti. U Osiyoni Yevropa bilan bog'lovchi asosiy avtomobil hamda temir yo'l tarmoqlari chorrahasida, geografik jihatdan nihoyatda qulay nuqtada joylashganligi tufayli qisqa muddatda Markaziy Osiyodagi eng yirik yuk tranziti qo'nalg'asiga aylandi.

Xulosa va takliflar

Xalqaro yuk tashuvlarni boshqarishni takomillashtirish O'zbekiston uchun juda muhim va strategik ahamiyatga ega. Ushbu sohaning rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi eksport va importni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda strategik geografik joylashuvga ega. Transport va logistika infratuzilmasini takomillashtirish orqali mamlakat mintaqaviy tranzit markaziga aylanishi, qo'shni davlatlar uchun muhim transport yo'nalishlarini boshqarishi mumkin. Logistika tizimining samaradorligi investitsiyalarni jalb qilishda katta rol o'ynaydi. Samarali yuk tashish tizimi ishlab chiqaruvchilar, investorlar va biznes uchun qulay sharoit yaratadi. Xalqaro transport tarmog'ining rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratadi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Transport va logistika sektorida ko'plab xizmatlar ko'rsatish talab etiladi, bu esa iqtisodiy diversifikatsiyaga hissa qo'shadi. Transport va logistika sektorida ko'plab xizmatlar ko'rsatish talab etiladi, bu esa iqtisodiy diversifikatsiyaga hissa qo'shadi. Samarali boshqaruv mahsulotlarni arzonroq va tezroq yetkazib berishga imkon beradi, bu esa O'zbekistonning eksport mahsulotlarini xalqaro bozorda raqobatbardosh qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 28 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi
2. O'zbekiston Respublikasi Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 28.11.2017 yildagi 948-son
3. Anikin B.A., Tyapuxin A.P. Kommercheskaya logistika: Ucheb. M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2018.-432 s.
4. Bauersoks Donald Dj., Kloss Deyvid Dj. Logistika: integrirovannaya ser' postavok / Per. s angl. M.: ZAO «Olimp - Biznes», 2011.-640 s.
5. Mirotin L.B., Tashbaev I.E. Logistika dlya predprinimatel'ya: osnovnyye ponyatiya, polojeniya i protsedury: Uchebnoe posobie. M.: INFRA-M, 2021.
6. F.Xo'jaev. "Logistika" darslik. Toshkent. Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi 2022 yil.
7. F.Xo'jaev, I.Muxtorova "Xalqaro logistika" o'quv qo'llanma Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi 2023 yil.